

## TOG'AY MURODNING "MOMO YER" QISSASIDAGI MAQOLLARNING MOHIYATI

***Yusupboyeva Farangiz***
*Urganch Ranch texonologiya universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** Tog'ay Murodning „Momo yer” asarida o'zining keng ma'nosi va chuqur ma'naviyati bilan ajralib turadi. Maqollar,bir qadriyat sifatida, avloddan avlodga o'tib, insonlarning hayotiy tajribalarini aks ettiradi. Ushbu maqolada „Momo yer” asaridagi maqollarning qo'llanish o'rni va uning asardagi izchilligi, ta'sirchanligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Xalq og'zaki ijodi, o'zbek adabiyoti, axloqiy saboqlar, urfatlar,ijtimoiy muammolar, ma'naviy qadriyatlar.

Xalqimiz o'zining falsafiy mulohazalarini, hayotiy tajribalarini,atrofdan olgan ijobiy, salbiy, xulosalarini yaxlit bir tarzda maqollarda ifodalaydi.Maqol-xalq og'zaki ijodining bir turidir. O'zbek maqollarimiz mazmun va mavzu jihatdan juda ham rang-barang va boy hisoblanadi.Maqollarda an'anaviylik xususiyati yuqori. An'ana uzoq vaqt davomida xalq tomonidan odat tusiga kirgan.Dastlabki, maqollarni Mahmud Koshag'ariy o'zining „Devonu lug'otit turk” asarida uchratishimiz mumkin. Maqollar hayotiy xulosalarni badiiy jihatdan ifodalovchi hikmatli s'zdir. Maqollar ifodalanishi jihatidan keng qamrovlidir. Asar ta'sirchanligini, bo'yoqdorligini,qiymati maqollar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Har bir yaratilgan asarlarda yozuvchi yashab o'tgan zamon, ijtimoiy muhit, makon va zamon yaqqol aks etib turadi. Ijodkor qaysi millatning vakili ekanidan qat'iy nazar o'z uslubi , yo'nalishi asarlarida yaqqol namoyon turadi. Yer yuzidagi jamiki millat vakillari o'zining umuminsoniy , milliy qadriyatlarga ega ekanligi bilan bir biridan keskin farq qilib kelgan. Yozuvchi, Tog'ay Murod o'z asarlarida juda ham ko'p bora folklorga murojaat qilgan. Jumladan, yozuvchining „Momo yer” asarida juda ko'plab maqollarni uchratishimiz mumkin. Maqollarning ko'pligi asarning mazmundorligi,mohiyatini, izchilligini, ta'sirchanligini nihoyatda yaqqol tasvirlangan. Asarning boshlanmasidayoq maqollar qo'llana boshlangan. Xumor momo askar o'g'lini kutaverib, o'ziga tasalli berish uchun shu maqolni aytadi- „ Yo'l azobi-go'r azobi”. Shu birjumla maqolning o'zida Tog'ay Murod bizga chuqur ma'noni yetkazgan. Bundan tashqari e'tiborimizni tortadigan bir qancha maqollar o'rin olgandir. „Qora ko'zning yoshi yomon,Qora qoshning ohi yomon”. Bu maqol Pahlaon Dahoga jiyani tomonidan aytilgan. Oilasini, farzandlarini tashlab shaharga ketgan Dahoni ogahlantirish , oilasini oldiga borishni xoxlagan jiyani bir nasihat sifatinda chiroyli o'xshatish qilib ushbu maqolni aytgan.Bu qo'llanish vaziyatga mos ravishda

o'rini maqol qo'llash vaziyatga mos ravishda o'rini maqol qo'llash vaziyatga mos ravishda o'rini maqol qo'llash Tog'ay Murodning mohoratidir. Asardagi yana bir qancha maqollardagi o'xshatishlar insonni hayratga soladi. Masalan, „Ortiqcha kamtarlik-manmanlik”, „Otdan tushsa ham egardan tushmadi”, „Bir balosi bo'lmasa shudgorda quyruq na qilur”, „Mehmon otangdan ulug’ ”va yana bulardan tashqari maqollar keltirib o'tilgandir. Maqollarning barchasi mohirlik bilan sadafdek joylashtirilgan. Asar uchun tanlangan barcha maqollarning mohiyat qamrovi g'oyatda yuqori hisoblanadi. Tog'ay Murodning hamma asarlari xalq tilida sodda yaratilganligi sababli ham, badiiy mohiyatini yo'qotmagn desak, to'g'ri bo'ladi. Darhaqiqat, yozuvchining asarini o'qib, tahlil qilar ekanman , o'tkir emotsional ta'siri g'oyatda kuchli bo'lganligi sababli kitobxonni hayajonga soladi,to'lqillantiradi.Har bir yozuvchi, shoir o'ziga xoslikka egadir.Anashu xususiyati bilan adabiyotimizda o'chmas iz qoldirgandir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar.-T. „Sharq”2009.
- 2.Tog'ay Murod. „ Momo yer”.-. „Sharq”1994.
- 3.Xalq og'zaki poetik ijodi .- „ Sharq ” Toshkent. 2010.